




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



37	Ruxshona XASANBOYEVA, Xorazm xalfachilik san'ati: tarixiy ildizlari, ijro an'analari va zamonaviy talqini	621
38	Munisa ABDULLAYEVA, Bolalar folklori va poetikasi	624
39	Tursımay JORABAEVA, Fitrat pen Axmet Baytırsınıyly shyg'armalarındag'ı ruhani yndestik pen ag'artushylyq ideyalar	629
40	O'g'ıloy G'ANIYEVA, O'zbek va turk maqollarida badiiy tasvir vositalari	631
41	Umida ABDUXALIQOVA, “Go'ro'g'lining tug'ilishi” dostonida bola obrazi	634
42	Farangiz ESHMO'MINOVA, O'zbek bolalar folklorining o'rganilishi	636
43	Shaxlo MINGNOROVA, Shonazar Shoabdurahmonovning folklorshunoslik faoliyati	638
44	Gulsanam SHOKIROVA (XOLMIRZAYEVA), Uychi shevasi leksikasidan	640
45	Sarvinov XUDOYBERDIYEVA, Norin shevasining ayrim fonetik xususiyatlari	643
46	Manzura MASTONOVA, O'zbek xalq ertaklari va qozoq xalq ertaklarida umuminsoniy qadriyatlar	647
47	Xayrullo ASHUROV, Kulguda aks etgan haqiqat: o'zbek folklorida satira va yumorning ijtimoiy-estetik vazifasi	650
48	Sevinch QURBONNAZAROVA, Xorazm shevasida ko'rsatish olmoshlarining funksional-semantik xususiyatlari	649
49	Sevinch OSTONOVA, Allaning turkiy xalqlar madaniyatida tutgan o'rni	656
50	Xayriniso ESHMURATOVA, O'zbek shevalarida kiyim nomlari	659
51	Dinora ABIRQULOVA, “Go'ro'g'li” turkumi dostonlarida qahramonning safarga chiqish jarayoni tahlili	664
52	Munisa ESHMATOVA, Tohir Malikning “Murdalar gapirmaydilar” qissasida yetimlik muammosi ma'naviy tanazzul sifatida	669
53	Munira JUMANIYOZOVA, Xorazm viloyati hazorasp tumani shevasida kelishik kategoriyasining qo'llanishi	677
54	Ohista RAHIMQULOVA, G'ani Jahongirov va bolalar o'yin folklori	680
55	Durdona ZOKIROVA Marosim folklorining bugungi kundagi ahamiyati va zamonaviylik xususiyati	684
56	Marjona ABDUMAJITOVA Toshkent viloyati shevalarini leksik jihatdan bazi tahlili	686
57	Nigora MENGLIYEVA, O'zbek va turk tillarida 771omatic iboralarning o'rganilish darajasi	689
58	Marjona HAZRATQULOVA, Qorako'l shevasining tasniflardagi o'rni	694
59	Sabrina MUBINOVA, Buxoro shahar o'zbek-tojik shevalarini o'rganilishi	700

QORAKO'L SHEVASINING TASNIFLARDAGI O'RNI

THE ROLE OF THE KARAKUL DIALECT IN CLASSIFICATIONS

Marjona HAZRATQULOVA,

ToshDO'TAU talabasi

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/XZSO8971

Annotatsiya. *This article studies the linguistic features of the Karakul dialect, which occupies a unique place in Uzbek dialectology, but which has been interpreted differently in various classifications to this day. It is known that the speech of the population of the Karakul district, located in the southwest of the Bukhara oasis, is often considered in the classification of Uzbek dialects as a complex territorial unit, influenced by the Karluk-Chigil-Uyghur (urban dialects) or Kipchak dialects, but at the same time retaining strong elements of the Oghuz dialect. The study provides a comparative analysis of the classifications proposed by prominent linguists (E.D. Palivanov, K.K. Yudakhin, V.V. Reshetov, G.O. Yunus, S.Ibragimov, I.Shamsiddinov, M.Mirzaev, etc.) and clarifies the place of the Karakul dialect in these systems. The article discusses the phonetic (vowel synharmonism, elongation, phenomena of "j" and "žj" fusion), lexical and morphological (use of kelshik affixes, verb forms) features of the dialect in connection with historical and ethnic processes in the area. The results obtained show that the Karakul dialect does not belong to a single dialect in its pure form, but has become a complex area where the dialects of the Kaluk, Oghuz and Tajik-speaking population intersect, embodying the mutual integration of Uzbek dialects.*

Key words: *Oghuz, Qarluq, Tajik, areal, Karakul, Alot, Gechmish, Tonmoq, Yaproq.*

Mahmud Koshg'ariydan so'ng o'zbek xalq shevalarining maxsus holda tekshirilgani aniq emas. O'zbek shevalarini yakka holda o'rganish XIX asr 2-yarmi va XX asr boshlarida sezilarli tartib asosida yo'lga qo'yilgan. Shevalarni bu tariqa o'rganish XX asrning 20-30-yillarida, ayniqsa, rivojlandi va o'zbek shevalarining biz bilmagan yangi qirralari ochila boshlandi. Bu sohada G.O.Yunusov, U.Tursunov, A.Fitrat, E.D.Polivanov, S.Ibrohimov, V.V.Reshetov, Sh.Abdurahmonov, A. Allaberdiyev singari tilshunos olimlar samarali faoliyat olib borganlar. Ayniqsa, tilshunos olim V.V.Reshetov o'zbek shevalarining tarixiy- lingvistik xususiyatlarini va ayrim dialektlarga qo'shni tillar-tojik, qozoq, qoraqalpoq, tillari munosabatini hisobga olgan holda o'zbek shevalarining tasnifini yaratdi. Unga ko'ra o'zbek tili uch komponentning birikishi natijasida vujudga kelgan:

1) qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi hozirgi qardosh uyg'ur tiliga yaqin bo'lib, tojik tili bilan yaqin etno-lingvistik munosabatda bo'lgan;

2) qipchoq lahjasi qardosh qozoq va qoraqalpoq tillari bilan yaqin;

3) o'g'uz lahjasi qardosh tili bilan yaqin.

O'g'uz lahjasi shevalari o'zining rang-barangligi bilan e'tiborlidir. Ayniqsa, Buxoro viloyat Qorako'l tumani qishloqlarining ayrim shevalari hozirgi turk adabiy tiliga juda yaqin. Masalan:

Gechmish – o'rgan-kechirilgan voqea hodisalar ma'nosida,

To'nmoq – burilish, orqaga qaytish ma'nosida,

Yaproq – barg ma'nosida.

Mustaqil O'zbekistonimizda ilm-fan, madaniyat va san'atning gurkirab rivojlanishi, ta'lim sohasidagi islohotlar, jumladan, chekka-chekka qishloqlarda ham yangi maktablar, litsey, kollejlarning qurilib ishga tushirilishi, kompyuterlarning kirib borishi, shuningdek, televideniye va aloqa vositalari ta'sirida bugungi kunga kelib o'zbek tilining barcha va shevalarida adabiy tilga yaqinlashish, leksik va morfologik jihatlardan adabiy til normalariga moslashish yaqqol

sezilmoqda. Qorako‘l va Olot hududlari dialektiga geografik joylashuv, tarixiy-etimologik va etnik omillarning ta‘siri bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, til va lahjalarning shakllanishida, rivojlanishida nafaqat lingvistik omillar, balki geografik, ijtimoiy va madaniy omillar ham katta rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada muhokama qilinganidek, O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin adabiy tilga moslashish jarayoni davom etsa-da, chekka hududlardagi va shevalar o‘ziga xos xususiyatlarini saqlab qolgan. Ayniqsa, Qorako‘l va Olot hududlarining geografik joylashuvi, chekka joylarda joylashganligi, aholisining tarixiy ko‘chmanchilik tajribalari va etnik tarkibi bu hududlarning tiliga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan. Quyi Zarafshon vohasining oxiri – Amudaryo bo‘ylariga tutash hududda joylashgan Qorako‘l va Olot tumanlari aholisining og‘zaki so‘zlashuvi bo‘lgan o‘g‘uz dialekti esa hozirgi davrda ham azaliy o‘ziga xosligi, qadimiy leksik va morfologik xususiyatlarini yo‘qotmasdan saqlab kelmoqdaki, buning bir nechta asosiy omillari mavjuddir:

2. Geografik joylashuv omili:

– birinchidan, Geografik omillar asosiy rolni o‘ynaganini ko‘rish mumkin. Qorako‘l va Olot tumanlari O‘zbekistonning chekka hududlarida joylashganligi sababli, bu yerlarda yashovchi aholi uzoq vaqt davomida turli qabilalar va etnik guruhlar bilan aloqa qilishgan. Qashqadaryo, Xorazm, Tojikiston va Turkmaniston kabi qo‘shni hududlar bilan bordi-keldilar bu voha dialektiga o‘ziga xos o‘zgarishlar kiritgan. Masalan, Olot tumanidagi ba‘zi qishloqlarda “maa” va “tiraxto‘r” so‘zlari ishlatilsa, boshqa qishloqlarda esa “moshin” va “tiraktur” so‘zlari qo‘llaniladi. Bu lahjalar orasidagi farqlar ko‘proq hududiy aloqalar va tarixiy ko‘chmanchilik jarayonlari bilan bog‘liq. Qorako‘l va Olot sharqida Qashqadaryo viloyatining Muborak va Mirishkor tumanlari bilan, janubda Turkmanistonning Forob, Chorjo‘y, Darg‘onota tumanlari, Qizilqum yaylovlari orqali Xorazm, shimolida qisman tojik so‘zlashuvchi aholi yashaydigan Jondor tumanlari bilan azaliy bordi-keldi, Bu esa mazkur vohadagi so‘zlashuv shevasiga ham ta‘sir ko‘rsatgan. Masalan: Olot tumanining Qashqadaryo bilan chegaradosh hududidagi Chovdur, Eshakchi qishloqlari aholisi “maa:shin”, “tiraxto‘r” deb talaffuz qilsa, Qorako‘l shahriga yaqin bo‘lgan Qoravul va Pichoqchi qishloqlari shevasida “moshin”, “tiraktir” deb aytiladi.

Ikkinchidan, hududdagi aholi asosan qishloqlarda yashaydi. Bu qishloqlar esa Buxoro shahridan 68-116 km, Qorako‘l va Olot shaharchalaridan 5-10, 20-26 km uzoqlikda joylashgan, ya‘ni aholi faqat shahar va tuman markazlariga borgandagina adabiy tildan foydalanadi.

3. Tarixiy-etimologik omil:

Tarixiy-etimologik omillar ham hududdagi til xususiyatlariga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Qadim zamonlarda mazkur hudud aholisi ko‘plab migratsiya jarayonlariga duch kelgan, bu esa ularning dialektiga turli xil leksik va morfologik o‘zgarishlarni olib kelgan. Xorazm, Qarshi shahar va Amudaryo bo‘ylaridan kelgan ko‘chmanchi qabilalar bu hudud aholisi bilan birlashib, ularning tiliga ta‘sir o‘tkazgan. Shuningdek, hududda yashovchi etnik guruhlarining aralashuvi, masalan, chandir va chovdur qabilalarining tilga kiritgan hissasi dialektlarni yanada rang-barang qilgan. Bularning barchasi hududning til va shevasining boshqa o‘g‘uz dialektlaridan farqlanishiga olib kelgan. Keksalarning guvohlik berishlaricha, qadimda mazkur tumanlar aholisi ayrim qismlari Xorazm, Qarshi, Kaspiy bo‘ylari va Amudaryo yoqalaridan ko‘chib kelishgan. Bundan tashqari, 1920-yilga qadar Chorjo‘y va Qarshi Buxoro amirligi tasarrufida bo‘lganligi boisdan Qorako‘l va Olot tumanlari aholisi Chorjo‘y, Qorako‘l va Qarshi orasida ko‘chmanchilik tarzida yashab dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanishgan. Aynan shu jarayonlar ham Quyi Zarafshon etaklaridagi aholi so‘zlashuv dialektida o‘ziga xos rang-barangliklar paydo bo‘lishiga olib kelgan.

4. Etnik omil: yuqorida ta‘kidlaganimizdek, bu hududga asrlar mobaynida turli joylardan turli xil ko‘chmanchi qabilalar kelib o‘rnashgan. Bular orasida o‘zbeklar va o‘g‘uzlardan tashqari turkmanlar, arablar, urganjiylar, Kaspiy bo‘ylaridan chandir va chovdur qabilalari, qisman tojiklar va totorlar, mo‘g‘ullar va boshqa turli qabila va urug‘ shevalari o‘zbek tilining

o‘g‘uz dialektiga aralashib ketganligi uchun bugungi kunda ushbu hududdagi so‘zlashuv dialekti boshqa o‘g‘uz shevalaridan sezilarli ravishda farq qiladi.

Diqqat bilan qaraydigan bo‘lsak, bitta qishloqdagi sheva xususiyatlari orqali ham etnik jarayon ta‘sirini sezish mumkin. Aytaylik, Qorako‘l va Olot tumanlaridagi Chandir qishloqlarida yashovchi chandirlar arini “zombir” deyishadi. Xuddi shu qishloqda yashovchi, lekin kelib chiqishi Amudaryo bo‘ylarida yashovchi qabilalarga borib taqaladigan kishilar “ori” deb atashadi. Yoki morfologik jihatini olib qaraydigan bo‘lsak, “edik”, “kelgan edik” fe‘lini olib qaraydigan bo‘lsak, ayrim mahallalar ahli “boribtiq, gelibtik” desa, ayrimlar “borantiq, gelantik”, ba‘zilari esa “boribtiqlar, gelibtiqlar” tarzida talaffuz qilishadi. O‘zbekistonning adabiy tilga yaqinlashish jarayonlari davom etsa-da, geografik va tarixiy-etnik omillar tufayli bu hududlarning o‘ziga xos dialektlari saqlanib qolmoqda. Qorako‘l va Olot tumanlarining dialektlari boshqa o‘g‘uz shevalaridan sezilarli darajada farq qiladi. Masalan, ayrim morfologik shakllar va leksik birliklar boshqa hududlardagi shevalardan tubdan farq qiladi, bu esa tarixiy migratsiyalar va etnik tarkibning xilma-xilligiga bog‘liq. Tilshunoslikka oid manbalarda tilning ijtimoiy hodisa ekanligi uqtirib o‘tiladi. Biz ham ushbu fikrga qo‘shilgan holda Quyi Zarafshon vohasi ba‘zi bir qishloqlari til nuqtayi nazaridan bir-biridan keskin farq qiladi. Buni biz va o‘zbek urug‘larining azaldan yaqin qo‘shni bo‘lib yashashidan deb hisoblaymiz. Bu holat tilshunoslikdagi tilning ijtimoiy hodisa ekanligi haqidagi nazariyalarni yana bir bor tasdiqlaydi. Chunki, til o‘z rivojlanishida faqat lingvistik qonuniyatlar asosida emas, balki ijtimoiy, etnik va geografik omillar ta‘sirida ham shakllanadi va o‘zgaradi. Shu jihatdan, Qorako‘l va Olot tumanlaridagi dialektlarning o‘ziga xosligi ham tilning ijtimoiy hodisa ekanligini ko‘rsatadi. Kelgusida bu hududning dialektlarini chuqurroq o‘rganish, ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni tahlil qilish va adabiy tilga moslashish jarayonlarini kuzatish o‘zbek tilshunosligi uchun muhim bo‘lib qoladi. Xususan, bu dialektlarning boshqa o‘g‘uz dialektlari bilan o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash, ularning kelib chiqishi va rivojlanishiga oid yangi ilmiy nazariyalar ishlab chiqish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi. Yuqoridagi omillarni hisobga olgan holda, tilning har bir hududda o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi tabiiydir va bu dialektlar madaniy merosimizning ajralmas qismi sifatida qadrlil bo‘lib qoladi.

Shuningdek, ilm-fan, madaniyat va san‘atning gurrakib rivojlanishi, ta‘lim sohasidagi islohotlar, jumladan, chekka-chekka qishloqlarda ham yangi maktablar, litsey, kollejlarning qurilib ishga tushirilishi, kompyuterlarning kirib borishi, shuningdek, televideniye va aloqa vositalari ta‘sirida bugungi kunga kelib o‘zbek tilining barcha va shevalarida adabiy tilga yaqinlashish, leksik va morfologik jihatlardan adabiy til normalariga moslashish yaqqol sezilmoqda.

Xususan, M. Mirzayev “So‘z boshidagi (ba‘zan o‘rtada, ikki unli orasida) t va k undoshlari jarangli (d, g) aytiladi” [Mirzayev 1969; 14] deb yozadi va misollar keltirib o‘tadi va bu hodisa vaqt o‘tgan sari o‘z xususiyatini yo‘qotayotganini aytib o‘tadi: “O‘g‘uz shevalarida asosan so‘z boshida t va k undoshlarining jarangli aytilishi, ya‘ni “d”lashish va “g”lashish hodisasi tub xususiyat hisoblanadi. Lekin bu jarayonning Buxoro o‘g‘uzlari nutqida tobora kamayib, qisqarib borishi kuzatilmoqda” [Mirzayev 1969; 18].

Qorako‘l shevasining o‘ziga xos xususiyatlari.

Vokalizm sistemasi o‘nta fonemadan iborat: ä ~ a, ā, e, i ~ I, ü ~ u, ö ~ o

So‘z tarkibida unli tovushlarning ohangdoshligi ~ palatal garmoniye saqlangan: qo‘shiq – qo‘shiqlar – qo‘shiqlardan; ko‘z ~ ko‘zlar ~ ko‘zlaring; qush ~ qushlar ~ qushlarga, Olot – Olottan Qarakölä bärän (ad. Olotdan Qorako‘lga);

Birlamchi cho‘ziq unli tovushlar ma‘lum miqdorda ayrim qishloq shevalarida (masalan, Jigachida) ishlatiladi: duş ~ duş, duz ~ duz, dosh ~ dosh kabi. Masalan: tomdan duş; man duş gördim. Pilan duz; oşa duz soldi;

A unlisi y undoshi oldida i bilan almashinadi; ketma + y ~ ketmiy, ketmiydi, qo‘yma + y ~ qo‘ymiy ~ qo‘ymiydi, ishlä + y ~ ishliymiz.

O-lashish hodisasi amalda ā unlisi soʻzlarning boshida, oʻrtasida va oxirida kela oladi: to:sh, bogʻ, dorvoz, dorvoza, tosmā, ovqot, sovgʻo (ad. Tosh, bogʻ, dorboz, darvoza, tasma, ovqat, sovgʻa). Buxoroning oʻgʻuz shevalari ana shu xususiyati bilan ham oʻzbek tilining boshqa oʻgʻuz shevalaridan, chunonchi Xorazmning oʻgʻuz shevalaridan farqlanadi.

Bir qancha soʻzlarda ou, öü (<ev, ov) tipidagi diftong ancha keng qoʻllanadi: touq (tovuq), touth (tovush), köüş (kavsh), döület (davlat), köüliydı (kavlaydi), qoulaydi (quvlaydi) va b. Bu tipdagi diftong oʻgʻuz tillaridan biri ~ ozarbayjon tilida ham mavjud: döwrä, döwlet va b.;

Ikki unli tovush orasida (intervokal pozitsiyada) ch undoshi koʻpincha jarangli talaffuz etiladi: ajji (achchiq), emjak (emchak), ipin uji (ipning uchi), ikkinji (ikkinchi), uchinji (uchinchi) kabi shakllarda boʻladi.

Chuqur til orqa undoshi q soʻz oxirida, baʼzan soʻz oʻrtasida tushiriladi: tori (tariq), sari (< sariq), sichon (sichqon), toʻqiz (toʻqqiz), taro (taroq)

Koʻplik son formasining -lar/-lär, baʼzan -ler va -ar variantlari bor: qoylar, gechchiler (Jigʻachi qishlogʻida), bizar.

Egalik affikslarining singarmonik variantlari bor: -im/-im, -iñ/-iñ, -i/-i, -si/-si; -imiz/-imiz va hokazo. Misollar: qoyim, gechchim, qoyiñ, gechchiñ, qoyi, gechchisi, qoyimiz, gechchimiz kabi;

Olti kelishik formasi mavjud:

Bosh kelishik: Qorakoʻl, Buxoro;

Qaratqich kelishigi (-iñ, -iñ): Qorakoʻliñ, Buxoroniñ, ukaming;

Tushum kelishigi (-i, -i): Qorakoʻli, ukami: ukami olip kelantim;

Joʻnalish kelishigi (-a, -ä): Qorakoʻla, Buxoroya, baligʻa

Oʻrin-payt kelishigi (-da, -dä): Qorakoʻlda, pasta (pastda),

Chiqish kelishigi (-dan, -dän, -tan): Qorakoʻldan, Olottan va b.;

Tovushlarning oʻrin almashinish va tushib qolish, ortish xususiyatlari:

Deyarli barcha hollarda soʻz oxiridagi “q” tovushi “g” shaklida, baʼzan “k” esa “g” shaklida talaffuz qilinadi: tariq ~ tarigʻ, baliq ~ baligʻ, sariq ~ sarigʻ; falak ~ palag, malak ~ malag, xoʻjak ~ xoʻjag (buzoq); terak ~ terag, kekirdak ~ kakirdag, kesak ~ kasag. Yoki aksincha: barg ~ bark.

Oʻgʻiz-qipchoq lahjalari taʼsiriga uchragan ayrim qishloq shevalaridagi baʼzi soʻzlar talaffuzida adabiy tildagi “q” tovushi oʻrniga “x” tovushi ishlatiladi: vaqt ~ vaxt, toʻq ~ toʻx, toʻqchilik ~ toʻxchilik.

Soʻz boshida, oʻrtasida va oxirida keluvchi “f” tovushi deyarli hamma hollarda “p” tarzida va aksariyat hollarda “b” tarzida talaffuz qilinadi: lafz ~ labz, shaftoli ~ shaptoli harf ~ harp, foyda ~ poyda, foiz ~ poiz, Fozil ~ Pozil, fahm-farosat ~ pam-parosat; sharf ~ sharp; Sharof ~ Sharop; Sharif ~ Sharip; taraf ~ tarap.

Kam hollarda “p” tovushi “b” tovushiga va aksincha almashadi: pichoq ~ bichoq, pishiq ~ bishiq, pishiriq ~ bishiriq, pishiqchilik ~ bishiqchilik, sharob ~ sharop va h.k.

Arab tilidan kirgan ayrim soʻzlardagi “h” tovushi tushib qoladi yoki bu tovush “y” tarzida talaffuz qilinadi: Rahmon ~ Ramon; Bahri ~ Bari; rahm-rayim; muhim ~ muyim; vahima ~ vayima; Mohida ~ Moyida, Mohira ~ Moyra; koʻhna ~ koʻyna; baxrin ~ barin; Zuhro ~ Zoʻro, Muhtaram ~ Moʻtaram; Marhamat ~ Maramat; Marhabo ~ Marabo; “x” bilan birga soʻzning oʻrta boʻgʻini ham (id, uh) tushib qolishi mumkin, bu ayniqsa arabchadan kirib kelgan ismlarga xosdir: Mehridin ~ Meriddin, Merdin; Muhiddin ~ Muyiddin, Muydin; Salohiddin ~ Saloyiddin, Saloidin; Bahriddin ~ Bariddin, Baridin, Bardin; Faxriddin ~ Faxrdin; Nuriddin ~ Nurdin; Badriddin ~ Badrdin; Majiddin ~ Majidin; Isomiddin ~ Isomdin; Muharram ~ Marram, Maram.

Baʼzi holatlarda soʻz oʻrtasida “b” tovushi “v” tovushiga aylanadi: toblamoq ~ tovlamoq; Bozorboy ~ Bozorvoy; qibla ~ qivla; oftoba ~ optova (bu soʻz oftob (quyosh) soʻziga -ga joʻnalish kelishigi qoʻshilishi orqali hosil boʻlgan); Sanobar ~ Sanovar; xabar ~ xavar; haybat ~ hayvat; sabab ~ savab; kabob ~ kavob; tabib ~ tavib; sabr ~ savr.

Soʻz oʻrtasida “l” va “m” tovushlarining “d” tovushiga oʻzgarishi uchrab turadi: qimirlamoq ~ qimirdamoq, tapirlamoq ~ tapirdamoq; paqillamoq ~ paqildamoq; mingillamoq ~ mingildamoq;

Soʻz oʻrtasida “m” undoshidan keyin keluvchi “b” undoshining qoʻsh “m” undoshiga aylanishi kuzatiladi: dumba ~ dumma, tamba ~ tamma, damba ~ damma, dumbul ~ dummul, sumbula ~ summula.

Feʼl turkumiga kiruvchi ayrim soʻzlarning oʻrtasida keluvchi “y” tovushining “l” tovushiga almashinish hodisasi uchraydi: koʻpaymoq ~ koʻpalmoq, ozaymoq ~ ozalmoq, kamaymoq ~ kamalmoq.

Kam hollarda soʻz oxirida keluvchi “r” undoshi “l” tovushi bilan almashinadi: abjir ~ abjil, abjirlik ~ abjillik; anjir ~ anjil; zanjir ~ zanjil, zanjirlamoq ~ zanjillamoq.

Kelasi zamonni ifodalovchi borgim kelmadi, qilgim kelmadi, kelgim kelmadi kabi soʻz birikmalaridagi “g” tovushi “as” tovushlari bilan almashadi: uxlagim kelmadi ~ uxlayasim kelmadi, borgim kelmayapti ~ borasim kemoʻpti, qilgim kelmayapti ~ qilasim kemoʻpti, kelgim kelmadi ~ kelasim kelmadi tarzida talaffuz qilinadi.

Baʼzan esa qipchoq lahjasi taʼsiriga uchragan qishloq shevalarida qilgim, kelgim kabi feʼl turkumiga kiruvchi soʻzlarda “l” harfi tushirib qoldiriladi va ular qigim, kekim shaklida talaffuz etiladi.

“R”, “M” va “Q” tovushlari ayrim hollarda ikkilanadi: qari ~ qarri, chirik ~ chirriq, saqich ~ saqqiz, saqol ~ saqqol; shama ~ shamma.

Soʻzlashuvda koʻp hollarda qaratqich kelishigini ifodalovchi “-ning” oʻrniga tushum kelishigidagi “-ni” qoʻshimchasi ishlatiladi.

Feʼlning oʻtgan zamon shakli:

-di oʻtgan zamon shakli jaranglilarga -di, -di shaklida, jarangsizlarga -ti, -ti shaklida keladi, kelanti shakli bundan mustasnodir: yozdi, bordi, kettim, chopti.

-ib oʻtgan zamon shakli -ip, -ip shakllarida keladi: ketipti- kelibdi
ketipti – ketibdi

-gan oʻtgan zamon shakli –an, –än shaklida qoʻllaniladi: kelan, ketan, qolan.

Feʼlning hozirgi zamon shakllari:

– jap, – japti hozirgi zamon shakli: boryapman- boropman, boromman, borotimman;
kelaman – kelopman, kelomman, kelotimman

Feʼlning kelasi zamon shakli:

-a, -moqchi shakllari: boraman, kelaman, borjoqman, keljoqman.

Sifatdoshning -ayotgan shakli + edim toʻliqsiz feʼli: borotantim, kelotantim, boritgandim, kelotgandim;

– moqchi + edim shakli: borjoqtim, keljoqtim, qoljoqtim, bormoqchiydim, kelmoqchiydim;

– ar + edim shakli: borattim, kelattim, qolattim

Ayrim hollarda soʻz oxirida va boshida “d” tovushi “t” shaklida talaffuz qilinadi (daromad ~ daromat, deraza ~ teraza). Aksincha, oʻgʻuz lahjasi taʼsirida ayrim soʻzlarning boshida keluvchi “t” tovushi “d” tovushiga aylanadi: toʻngiz ~ doʻngiz, turtmoq ~ durtdmoq.

Ayrim soʻzlarning birinchi boʻgʻinidagi “e” tovushi oʻrniga “a” talaffuz qilinadi: kerak ~ karag, terak ~ tarag, kekirdak ~ kakirdag, kesak ~ kasag.

Baʼzan “u” oʻrniga “o” talaffuz qilinadi yoki aksincha: shu ~ shoʻ (koʻrsatish olmoshi); uy (xonadon) ~ oʻy; uylanmoq (turmush qurish) ~ oʻylanmoq, tugʻmoq ~ toʻgʻmoq.

Kam boʻlsa-da “a” tovushining “i” tovushi bilan (yoki aksincha) almashinish holati mavjud: chayon ~ chiyon, qayon ~ qiyon; gʻazza ~ gʻizza; boraymi ~ boriymi, kelaymi ~ keliymi, yuraymi ~ yuriyimi.

Soʻz oxirida keluvchi “z” tovushi baʼzan “s” tovushi bilan almashinadi: tuz – tus, mayiz ~ mayis, ayozi ~ ayos, tigʻiz ~ tiqis, tarvuz ~ tarvus, xoʻroz ~ xoʻros, tez ~ tes.

Sa’dulla G‘aybullayev “Qorako‘l shevasining tarovati” kitobida: “Ayrim qishloq shevalarida “ng” burun tovushi mavjud. Bu ayniqsa o‘g‘uz lahjasi ta’siriga uchragan qishloqlar aholisiga xosdir (Tangri ~ Tangri, yangi ~ yangi, oling ~ oling, qo‘ying ~ qo‘ying). “Ng” tovushi bu shevalarda barcha hollarda “ng” tovushi o‘rnida kelsa, boshqa qishloq shevalarida esa bunday almashinuv kam uchraydi” [Гайбуллаев 2017; 8] – deb aytib o‘tadi. Olimning bu fikriga qisman aniqlik kiritish mumkin. Jumladan, shevadagi “ng”ni oddiy burun tovushi deb emas, balki chuqur til orqa burun tovushi sifatida baholash to‘g‘riroq bo‘ladi. Chunki ushbu tovush talaffuz jarayonida tilning orqa qismi faol ishtirok etadi va u fonetik jihatdan oddiy “ng” tovushidan farqlanadi. Bu hodisa ayniqsa o‘g‘uz lahjasi ta’siriga uchragan qishloqlar aholisiga xosdir.

Shuningdek, “ng” tovushi barcha so‘zlarda bir xil darajada qo‘llanadi, degan fikr ham to‘liq mos kelmaydi. Masalan, ayrim shevalarda “bodring” so‘zida mazkur tovushning to‘liq saqlanmasligi yoki boshqacha talaffuz qilinishi kuzatiladi. Demak, “ng” tovushining ishlatilishi shevalarda bir xil emas, balki so‘z tarkibi va hududiy talaffuz xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi.

So‘zlardagi “o” va “a” tovushlarining o‘rni hech bir qonuniyatsiz almashinib turadi: toyib ketmoq ~ tayib ketmoq, qora ~ qara, olma ~ alma, somon ~ samon, tomon ~ tamon.

Fe‘l zamonlarini anglatuvchi “-adigan” qo‘shimchasi “-iytiyon”ga aylanadi: boradigan ~ boriytiyon, keladigan ~ keliytiyon, qiladigan ~ qiliytiyon.

Ko‘rsatish olmoshlarining to‘ldiruvchi so‘z bilan qo‘shilib ketish hodisasi uchraydi: shu yerda ~ sherda, sho‘rda; qayerda ~ qerda, kerda; bu yerda ~ berda, bo‘rda; shu yerga ~ shera, sho‘ra; o‘sha joyga ~ sho‘ joya; o‘sha yerda ~ shog‘da; u yerda ~ hordä.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 176 b.
2. Abdullayev F.A. Xorazm shevalari. – Toshkent, Fan, 1961, 249-bet.
3. Абдурахмонов Д. Қорлуқлар ва уларнинг тили // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: Фан, 1987. – № 3.
4. Абдурахмонов Д., Содиқов Т., Носиров Ш., Туробова М. Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 101.
5. Allaberdiyev A. Buxoro o‘g‘uz shevalari leksikasiga doir // O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 2013, 6-son, 81-86-b.
6. Мирзаев М. М. Ўзбек тилининг Бухоро группа шевалари. – Тошкент: Фан, 1969. Б.
7. Қудратов Т. Ўзбек тилининг оралик шевалари: Фил. Фан. Номз... дисс. – Тошкент, 1968. – 260 б.
8. Turdialiyev A. Denov shevalarini areal o‘rganish va til korpusiga joylashtirish. – Toshkent, 2025. – 136.
9. Гайбуллаев С. Қоракўл шевасининг таровати. – Тошкент: Ниҳол, 2017. – 8 б.

